

## TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA YUK TASHISH TARIF TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHLTLARI

**Mannonov Shohruhmirza Abdurashid o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Izlanuvchisi, PhD.

### Аннотация

Mazkur tadqiqotda temir yo‘l transportida yuk tashish tarif tizimining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tarif tizimining infratuzilma, harakatlanuvchi tarkib hamda transport-logistika jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilgan. Tahlillar natijasida tariflarni yuk turlari, tashish masofasi va mavsumiy omillar asosida differensiallashtirish transport samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, vagon va konteynerlardan foydalanish uchun vaqtga asoslangan to‘lov mexanizmlarini joriy etish transport vositalarining aylanish tezligini oshirish imkonini berishi asoslangan. Tadqiqot davomida amaldagi tarif tizimidagi mavjud muammolar baholanib, tarif siyosatini modernizatsiya qilish, logistika yondashuvlarini kengaytirish hamda bozor mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Калит so‘zlar:** temir yo‘l transporti, yuk tashish, tarif tizimi, logistika, tarif siyosati, transport infratuzilmasi, differensial tariflar, transport samaradorligi.

### Аннотация

В данном исследовании были проанализированы теоретические и практические аспекты тарифной системы грузовых перевозок на железнодорожном транспорте. В ходе исследования была изучена взаимосвязь тарифной системы с инфраструктурой, подвижным составом и транспортно-логистическими процессами. По результатам анализа было установлено, что дифференциация тарифов в зависимости от видов грузов, расстояния перевозки и сезонных факторов способствует повышению эффективности транспортной системы. Кроме того, было обосновано, что внедрение механизмов оплаты, основанных на времени использования вагонов и контейнеров, способствует увеличению скорости оборота транспортных средств. В процессе исследования были оценены существующие проблемы действующей тарифной системы, а также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по модернизации тарифной политики, расширению логистических подходов и развитию рыночных механизмов.

**Ключевые слова:** железнодорожный транспорт, грузовые перевозки, тарифная система, логистика, тарифная политика, транспортная инфраструктура, дифференцированные тарифы, транспортная эффективность.

### Abstract

This study analyzed the theoretical and practical aspects of the freight transportation tariff system in railway transport. During the research process, the interrelationship between the tariff system, infrastructure, rolling stock, and transport-logistics processes was examined. The analysis revealed that differentiating tariffs based on cargo types, transportation distance, and seasonal factors contributes to

improving transport efficiency. Furthermore, it was substantiated that the introduction of time-based payment mechanisms for the use of wagons and containers can increase the turnover rate of transport vehicles. The study also evaluated the existing problems within the current tariff system and developed scientific and practical recommendations aimed at modernizing tariff policy, expanding logistics approaches, and developing market mechanisms.

**Keywords:** railway transport, freight transportation, tariff system, logistics, tariff policy, transport infrastructure, differentiated tariffs, transport efficiency.

## KIRISH

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida transport tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. U ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydi, hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi hamda ichki va tashqi bozorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, transport tizimining samarali faoliyati, ayniqsa temir yo‘l transporti orqali yuk tashish jarayonlarini tashkil etish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Temir yo‘l transporti yuqori yuk tashish quvvati, tashishlarning barqarorligi va nisbatan past tannarxi bilan boshqa transport turlariga nisbatan ustunlikka ega. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda tarif tizimi transport xizmatlari narxini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarif tizimi orqali transport xizmatlari bozori tartibga solinadi, resurslar taqsimoti amalga oshiriladi va transport korxonalarining moliyaviy barqarorligi ta‘minlanadi.

Zamonaviy bozor sharoitlarida temir yo‘l transportida amaldagi tarif tizimi qator muammolar bilan tavsiflanadi. Xususan, tariflarning yuqori darajasi, bozor talablariga moslashuvchanlikning yetarli emasligi, xizmat sifati bilan bog‘liq rag‘batlantirish mexanizmlarining sustligi hamda transport-logistika jarayonlarining yetarli darajada optimallashtirilmaganligi ushbu tizimni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan, temir yo‘l transportida yuk tashish tarif tizimini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos holda rivojlantirish, uni differensiallashtirish va logistika yondashuvlari asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada temir yo‘l transportida yuk tashish tarif tizimining nazariy asoslari va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi hamda uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Transport tizimi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni masalalari ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, A.G. Granberg transport infratuzilmasini mintaqaviy iqtisodiy makonni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida baholaydi<sup>1</sup>. Uning fikricha, transport tarmoqlari hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta‘minlab, ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonlarining uzviyligini mustahkamlaydi.

Transport tizimining nazariy asoslari va uning tarkibiy elementlari A.V.

---

<sup>1</sup> Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. - М.: ГУ ВШЭ, 2004. - 494 с.

Velmojin, V.A. Gudkov va L.B. Mirotin tomonidan keng yoritilgan<sup>1</sup>. Ular transport tizimini texnik vositalar, infratuzilma obyektlari, boshqaruv mexanizmlari va iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashgan majmui sifatida talqin qiladi hamda transport jarayonlarining samaradorligi tizimli yondashuv asosida shakllanishini ta'kidlaydi.

M.B. Petrov transport tizimini murakkab tashkiliy, texnologik va institutsional tizim sifatida ko'rib chiqadi<sup>2</sup>. U transport tizimining samaradorligi uning strukturaviy va funksional elementlari o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liqligini asoslaydi hamda transport infratuzilmasining iqtisodiy rivojlanishdagi tizim hosil qiluvchi rolini alohida qayd etadi.

## **METADOLOGIYA**

Tadqiqotda temir yo'l transportida yuk tashish tarif tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalaniladi. Tizimli yondashuv asosida tarif tizimi transport infratuzilmasi, harakatlanuvchi tarkib va boshqaruv mexanizmlarining o'zaro bog'liq majmui sifatida tahlil qilinadi. Jarayonli yondashuv orqali yuk tashish va transport-logistika operatsiyalarining samaradorligi baholandi.

Tahlil va sintez usullari yordamida tarif tizimining nazariy asoslari umumlashtiriladi, taqqoslash usuli orqali esa temir yo'l transporti tarif tizimining amaldagi holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari aniqlanadi. Iqtisodiy-mantiqiy va statistik tahlil usullari tarif siyosatining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholashda qo'llanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Temir yo'l transportida yuk tashish tarif tizimi zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, logistika jarayonlari va bozor munosabatlarining rivojlanishi ta'sirida doimiy takomillashtirib borilishini talab etadi. Tarif tizimi transport xizmatlari bozorida talab va taklif, tashish hajmi, tashish texnologiyalarining yangilanishi hamda harakatlanuvchi tarkibning rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu jihatdan, tarif siyosati nafaqat transport korxonalarining daromad manbai, balki butun iqtisodiyotda resurslar taqsimotiga ta'sir etuvchi muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, temir yo'l transportida tarif tizimi asosan infratuzilmadan foydalanish, vagon va konteynerlardan foydalanish to'lovlari asosida shakllanadi. Mazkur tizim davlat tomonidan tartibga solinib, transport xizmatlari bozorida ishtirok etuvchi subyektlar manfaatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, tariflarning shaffofligi va iqtisodiy asoslanganligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Tarif tizimida ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish qiymatini alohida ajratish orqali transport xizmatlari narxini aniqlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi.

---

<sup>1</sup> Вельможин А.В., Гудков В.А., Миротин Л.Б. Теория транспортных процессов и систем. - М.: Транспорт, 2014. - 167 с.

<sup>2</sup> Петров М.Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта // Теория эволюции социально-экономических систем / под ред. А.И. Татаркина, В.И. Маевского. - М.: Экономика, 2018. - С. 401-419.

1-rasmda temir yo‘l transportida yuk tashish tarif tizimining tasnif variantlari sxematik tarzda ifodalangan. Unda tarif shakllanishi uch xil model - bir omilli, ikki omilli va uch omilli yondashuvlar asosida ko‘rsatilgan.



**1-rasm. Temir yo‘l tarif tizimining tasnif variantlari<sup>1</sup>.**

Bir omilli modelda tarif faqat tashish jarayonining asosiy elementi sifatida shakllanib, boshlang‘ich-yakuniy va harakatlanish operatsiyalari umumlashirilgan holda hisobga olinadi. Ikki omilli modelda esa tarif tarkibi kengaytirilib, infratuzilmadan foydalanish xarajatlari alohida komponent sifatida ajratiladi. Uch omilli modelda tarif tizimi yanada takomillashgan bo‘lib, unga qo‘shimcha ravishda vagon va konteynerlardan foydalanish xarajatlari ham kiritiladi<sup>2</sup>.

Tarifning formulaviy ifodasi orqali uning tarkibiy qismlari - tashish (asosiy), infratuzilma va harakatlanuvchi tarkib bilan bog‘liq xarajatlar bosqichma-bosqich kengayib borishi aks ettirilgan. Bu esa tarif tizimini yanada shaffof va iqtisodiy jihatdan asoslangan holda shakllantirish imkonini beradi.


Tadqiqot natijalari temir yo‘l transportida tarif tizimini takomillashtirishning bir qator ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Jumladan, yuklarni sinflarga ajratgan holda tariflarni tabaqalashtirish, ayrim yuk turlari uchun maxsus tariflarni joriy etish, mavsumiy omillarni hisobga olish, tashish masofasiga qarab tariflarni moslashtirish hamda tarif sxemalarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yirik hajmli va uzoq masofalarga tashiladigan yuklar uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash transport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Розанова Н.М. Экономика отраслевых рынков. - М.: Юрайт, 2017. - 410 с.

Vagon va konteynerlardan foydalanish uchun vaqtga asoslangan to‘lov tizimini joriy etish transport jarayonlarida samaradorlikni oshirishga olib keladi. Bu yondashuv orqali yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qiluvchilar vagonlardan foydalanish vaqtini qisqartirishga intiladi, natijada transport vositalarining aylanish tezligi oshadi va umumiy xarajatlar kamayadi. Ushbu mexanizm transport-logistika jarayonlarini optimallashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Biroq, amaldagi tarif tizimida qator muammolar ham mavjud. Xususan, tariflarning yuqori darajasi, ularning bozor sharoitlariga yetarli darajada moslashmaganligi, ayrim omillar bo‘yicha muvofiqlashtirilmaganligi hamda xizmat sifatini rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligi transport tizimi samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, temir yo‘l transportining ayrim yo‘nalishlarda avtomobil transportiga nisbatan vaqt jihatidan ortda qolishi uning raqobatbardoshligini pasaytiradi<sup>1</sup>.



**2-rasm. Tashish tarif tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari<sup>2</sup>.**

2-rasmda temir yo‘l transportida yuk tashish tarif tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari kompleks tarzda yoritilgan. Unda tarif siyosatini rivojlantirishning beshta muhim yo‘nalishi ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, har biri transport tizimi samaradorligini oshiradi.

Temir yo‘l transportida tarif tizimini takomillashtirish bozor mexanizmlarini keng joriy etish, logistika yondashuvlarini rivojlantirish, tariflarni differensiallashtirish hamda davlat tomonidan samarali tartibga solish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu esa transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Birinchi yo‘nalish tariflarni yuklar sinfi bo‘yicha tabaqalashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali yuklarning iqtisodiy ahamiyati, hajmi va transport xarajatlaridagi ulushi hisobga olinadi. Ikkinchi yo‘nalish ayrim yuk turlariga nisbatan maxsus tariflarni qo‘llash orqali davlat tomonidan maqsadli tartibga solishni amalga

<sup>1</sup> Лапидус Б.М., Мачерет Д.А. Экономика железнодорожного транспорта. - М.: УМЦ ЖДТ, 2011. - 512 с.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

oshirish imkonini beradi. Uchinchi yo‘nalishda mavsumiylik omilidan foydalanish orqali tariflarni moslashuvchan shakllantirish ko‘zda tutiladi, bu esa ayniqsa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashishda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi yo‘nalish tashish masofasiga qarab tariflarni differensiallashtirishni ifodalaydi, ya‘ni uzoq va qisqa masofalarga tashish xarajatlarini iqtisodiy jihatdan asosli tarzda belgilashga xizmat qiladi. Beshinchi yo‘nalish esa tarif sxemalarini takomillashtirish orqali tarif tizimini soddalashtirish, shaffofligini oshirish va bozor sharoitlariga moslashtirishni nazarda tutadi.

Ushbu yo‘nalishlar temir yo‘l transportida tarif tizimini modernizatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda transport xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Muammoning muhim jihati shundaki, tarif hozirgacha asosan o‘rtacha ko‘rsatkichlarga tayanadi. Vaqt omili, makon omili va yuk oqimining konsentratsiyasi ikkinchi darajada qolmoqda. Bu esa infratuzilma yetishmovchiligini investitsiya bilan hal qilishga majbur qiladigan sharoit yaratadi. Aslida esa muammoning ma‘lum qismi iqtisodiy signallar orqali yumshatilishi mumkin bo‘lgan holda, tarif tizimi ushbu funksiyani yetarli darajada ta‘minlamayapti.

Tarif tizimining tarixiy rivojlanishini qayta tahlil qilish o‘tmishni tavsiflash uchun emas, balki bugungi institutsional muammoni ochib berish uchun zarur. Davlat barqarorlikni saqlab qolishga intiladi, bozor esa resurslarni samarali taqsimlashni talab qiladi. Tarif tizimi aynan shu ikki mantiqni uyg‘unlashtirishi kerak bo‘lgan asosiy iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Biroq mavjud modelda bu uyg‘unlikni kuchaytirish zarurati mavjud. Ana shu holat tarif siyosatini qayta talqin qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Tarif yuk tashish xarajatlarini qoplovchi passiv instrument emas, balki yuk oqimini vaqt va yo‘nalishlar kesimida qayta taqsimlashga qodir faol iqtisodiy regulyatorga aylantirilishi lozim. Bu esa davlat-bozor ziddiyatini inkor etish orqali emas, balki uni iqtisodiy mexanizm orqali boshqarish orqali hal etish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv keyingi tahlillar va takliflar uchun konseptual asos vazifasini bajaradi.

### 1-jadval

#### Tarif tizimini shakllanishiga va takomillashuviga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar<sup>1</sup>

№	Omillar	Tariflarga ta‘siri
1	Iqtisodiy o‘shish	Yuk tashish xizmatlariga bo‘lgan talabni oshiradi, tariflarni oshiradi.
2	Ishlab chiqarish hajmi	Talabning oshishiga olib keladi, tariflarni oshiradi.
3	Eksport va import hajmi	Yuk tashish talabini oshiradi, tariflarni oshiradi.
4	Xom ashyo va mahsulot narxlari	Talab va taklifga ta‘sir qiladi, bu esa tariflarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.
5	Raqobat darajasi	Kuchli raqobat tariflarni pasaytirishga va xizmat sifatini oshirishga olib keladi.
6	Davlat siyosati	Tariflarni tartibga solish, monopoliya holatlarini cheklash uchun davlat tomonidan qo‘llaniladi.

<sup>1</sup> O‘rganilgan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Temir yo‘l infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar yuk tashish faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Infratuzilmaga investitsiyalar yo‘l tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalar joriy qilish va transport vositalarini yangilashga sarflanadi. Bu kabi sarmoyalar temir yo‘l xizmatlarining tezkorligi va ishonchliligini oshiradi, bu esa talab va taklifning o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yuk tashish tezligi va sifatining yaxshilanishi mijozlar tomonidan xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirishi mumkin, bu esa o‘z navbatida tariflarning oshishiga yoki moslashuvchan bo‘lishiga olib keladi.

Infratuzilmaga investitsiyalar yuk tashish faoliyatining samaradorligini oshirishda xarajatlarni qisqartirishga yordam beradi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar yordamida yukni tashish va ortiqcha vaqt sarflash kamayishi mumkin, bu esa tarmoqda narxlarni pasaytirish imkonini beradi. Infratuzilmaning yaxshilanishi transport jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni kamaytiradi va bu orqali xizmatlar sifati yaxshilanadi, bu esa umumiy ravishda tariflar siyosatini samarali boshqarish imkoniyatini beradi.

Davlat siyosatining tarif tizimiga ta’siri juda katta. Davlat tomonidan qabul qilingan siyosatlar va me’yorlar yuk tashish xizmatlarining narxini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlatning ishtirok etishi, odatda, bozor barqarorligini ta’minlash, raqobatni tartibga solish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, subsidiyalar davlat tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy yordam shakli bo‘lib, tariflarni pasaytirishga yoki ma’lum tovar yoki xizmatlarga bo‘lgan narxni barqarorlashtirishga yordam beradi. Subsidiyalar orqali davlat narxlarning ko‘tarilishini cheklab, mijozlar uchun imkoniyatlarni kengaytirishi mumkin.

Soliqlar ham tarif tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Davlat tomonidan belgilangan soliqlar va boshqa yig‘imlar transport kompaniyalari uchun qo‘shimcha xarajatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Agar soliqlar yuqori bo‘lsa, bu holat tariflarning oshishiga sabab bo‘lishi mumkin, chunki kompaniyalar o‘z xarajatlarini qoplash uchun narxlarni oshirishga majbur bo‘ladi. Soliq imtiyozlari esa, aksincha, tariflarni pasaytirishga yordam beradi, chunki ular kompaniyalar uchun xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Davlatning boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash shakllari, masalan, infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar yoki imtiyozli kreditlar, ham tariflarning pasayishiga yoki barqaror bo‘lishiga yordam beradi. Bu kabi choralar orqali davlat transport tizimining barqarorligini ta’minlashga va aholiga xizmatlarni adolatli narxlarda taqdim etishga intiladi, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tarif tizimiga ta’siri va natijalari 2-jadvalda.

Temir yo‘l yuk tashish tarif tizimlari bo‘yicha jahon tajribasi yagona modelga tayanmasligini ochiq ko‘rsatadi. Turli mamlakatlarda qo‘llanilgan yondashuvlar iqtisodiy muhit, bozor munosabatlari va davlatning tarmoqdagi roliga qarab shakllangan. Shu sababli tarif siyosatida qaysi model “yaxshiroq” ekanini abstrakt tarzda baholash mumkin emas; muhim masala - ushbu model qaysi sharoitda ishlagani va u qanday iqtisodiy muammolarni hal qilganidadir. Bu xulosa O‘zbekiston temir yo‘l

yuk tashish tizimi uchun ham prinsipial ahamiyatga ega.

**2-jadval**

**Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tarif tizimiga ta'siri<sup>1</sup>**

№	Omillar	Tariflarga ta'siri
1	Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tarif tizimiga ta'siri	Samaradorlikni oshiradi, narxlarni pasaytirishi yoki moslashuvchan bo'lishi mumkin
2	Zamonaviy texnologiyalar	Yuk tashish tezligini va sifatini oshiradi, tariflarning samarali shakllanishiga yordam beradi
3	Davlat subsidiyalari	Tariflarni pasaytirishga yoki narxlarni barqarorlashtirishga yordam beradi
4	Davlat tomonidan belgilangan soliqlar	Soliqlarning oshishi tariflarning oshishiga, soliq imtiyozlari esa tariflarning pasayishiga olib keladi
5	Boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari	Tariflarning pasayishiga yoki barqaror bo'lishiga yordam beradi

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari temir yo'l transportida yuk tashish tarif tizimi transport xizmatlari bozorining muhim iqtisodiy va institutsional mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatgan. Tarif tizimi infratuzilmadan foydalanish, vagon va konteynerlardan foydalanish hamda tashish jarayonlari bilan bog'liq xarajatlar asosida shakllantirilgan bo'lib, davlat tomonidan tartibga solinishi transport tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

O'tkazilgan tahlillar tarif tizimini takomillashtirish jarayonida yuklarni sinflar bo'yicha tabaqalashtirish, maxsus tarif mexanizmlarini qo'llash, mavsumiy omillarni hisobga olish hamda tashish masofasiga asoslangan differensial yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan. Shuningdek, tarif sxemalarini modernizatsiya qilish transport xizmatlari samaradorligini oshirish va bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, vagon va konteynerlardan foydalanish uchun vaqtga asoslangan to'lov tizimini joriy etish transport vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning aylanish tezligini jadallashtirish hamda transport xarajatlarini kamaytirish imkonini bergan. Mazkur mexanizm logistika jarayonlarini optimallashtirish va transport infratuzilmasidan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim omil sifatida baholangan.

Amaldagi tarif tizimida tarif stavkalarining nisbatan yuqoriligi, bozor sharoitlariga moslashuvchanlik darajasining pastligi hamda raqobat muhitini rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolar mavjudligi aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tarif siyosatini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, zamonaviy logistika yondashuvlarini keng joriy etish hamda davlat tomonidan samarali institutsional tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi asoslangan.

Temir yo'l transportida yuk tashish tarif tizimini kompleks takomillashtirish transport xizmatlari sifatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, logistika

<sup>1</sup> O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

xarajatlarini optimallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. - М.: ГУ ВШЭ, 2004. - 494 с.
2. Вельможин А.В., Гудков В.А., Миротин Л.Б. Теория транспортных процессов и систем. - М.: Транспорт, 2014. - 167 с.
3. Петров М.Б. Эволюционные закономерности организации региональной системы транспорта // Теория эволюции социально-экономических систем / под ред. А.И. Татаркина, В.И. Маевского. - М.: Экономика, 2018. - С. 401-419.
4. Розанова Н.М. Экономика отраслевых рынков. - М.: Юрайт, 2017. - 410 с.
5. Лapidус Б.М., Мачерет Д.А. Экономика железнодорожного транспорта. - М.: УМЦ ЖДТ, 2011. - 512 с.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**